

UDK: 616.99: 619

QORAMOLLAR ANOPLLOTSEFALYATOZLARI (ADABIYOT TAHLILI)***Muhammadiyaheva Shaxnoza Xursandovna****Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti- - assistent****E-mail: muhammadiyahevash87@mail.ru*****ANNOTATSIYA**

Tadqiqotlar o'z ichiga adabiyotlar ma'lumotlarining tahliliga va shaxsiy tadqiqotlar bo'yicha olingan natijalariga ko'ra qoramollar anoplplotsefalyatozlari tarqalishining yil mavsumiga ko'ra uning hozirgi epizootologik holatini, barcha ichak sestodlarining tutgan o'rnini, epizootologik ahamiyatini aniqlash masalalarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi anoplplotsefalyatozlar qoramolchilikdagi va veterinariya amaliyotidagi o'rnini qanchalik o'rinli ekanligini ko'rsatib berdi.

Kalit so'zlari: Qoramol, anoplplotsefalyatozlar, *Moniezia expansa*, *M.benedeni*, *M.autumnalia*, *Avitellina centripunctata* sestod, bo'g'in, tuxum.

ABSTRACT

The research includes the issues of determining the current epizootological status, the position of all intestinal cestodes, and the epizootological significance of the distribution of cattle anophlocephalatoses according to the season of the year according to the analysis of literature data and the results of personal research. takes All this showed how appropriate the place of anophlocephalatoses in cattle breeding and veterinary practice.

Key words: Cattle, anoplplotcephalatoses, *Moniezia expansa*, *M.benedeni*, *M.autumnalia*, *Avitellina centripunctata* cestodes, joints, eggs.

KIRISH. Mamlakatimizda chorvachlikni yuritish texnologiyasidagi o'zgarishlar, chorvo mollarni saqlash, zoogigenik va veterinariya -sanitariya tadbirlarni rejali amalga oshirish, rejalashtirish muhim vazifalardan biridir. Hozirgi paytda qishloq xo'jalik hayvonlari, xususan qoramollar orasida uchraydigan yuqumsiz va yuqumli kasalliklarga nisbatan parazitlar kasalliklar birmuncha keng tarqalishga ega. Tabiatda uchraydigan talaygina yuqumli va parazitlar kasalliklar har bir davlatning chorvachiligini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Ular orasida qoramollar uchun birmuncha xavf to'g'iradigan, ularga talofat etkazadigan gelmintoz kasalliklari mavjud. Bunday kasalliklarga ichak sestodlari – monieziyoz, tizanieziyoz va avitelliniozlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Qoramollar anoplplotsefalyatozlar bo'yicha respublikamiz, MDH va xorijiy olimlarning ilmiy adabiyot ma'lumotlarni tahlil qilish.

Систематика bo'yicha. Anoplotsefalyatozlar yassi chuvalchanglar -*Plathelminthes* (*Schneider, 1873*) tipning, sestodlar - *Cestoda Rudolphi 1808* sinfning *Cyclophyllidea Beneden in Braun, 1900* turkumiga uning *Anoplocephalata Skrjabin 1933* kenja turkumining, *Anoplocephalidae Chladkowsky 1902* oilasiga kiradi. Kasallik odatda enzootik darajada kechib, kasallangan hayvonlardan ko'proq qo'zi, uloq va buzoqlar nobud bo'ladi[5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METDOLOGIYA. Muammoni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida ilmiy -tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda qoramollar anoplotsefalyatozlariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni tahlil qildik.

Anoplotsefalyatozlar diksenli taraqqiyot tipiga ega. Ularning oraliq xo'jayinlari bo'g'imoyoqlilarning o'rganchaksimonlar sinfi vakillari – mayda hajimli oribatid (tuproq) kanalaridir. O'zbekiston xududida ularning o'ndan ortiq turi monieziyalarning oraliq xo'jayinlari ekanligi aniqlangan. (Sh. A. Azimov, 1974). Tuproq kanalari chirindixo'r bo'g'im oyoqlilar bo'lob, ular barcha tekislik, cho'l yaylov, tog'oldi – tog' hududlarida uchraydi. Shu sababli monieziyoz butun dunyoda, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari va Qozog'istonda keng tarqalgan kasallikdir. Fanda *Moniezia* avlodining 14 ta turi ma'lum. Ulardan *Moniezia expansa (Rudolphi, 1810)*, *Moniezia benedeni (Moniez, 1879)*, *Moniezia autumnalia (Kuznetsov, 1967)*, *Moniezia alba (Perroncito, 1879)* larning MDH hududida qo'y, echki va qoramollarda parazitlik qilishi aniqlangan. Qolgan 10 tur monieziyalar Evropa, Amerika qit'alarining ayrim davlatlarida va Qozog'iston xududlaridagi ayrim yovvoyi sut emizuvchilarda (bug'u, kosul va hokoza) topilgan[3].

Noyabr-dekabr va yanvar-may oylarida hayvonlarning barcha yosh guruhlari *M.autumnalia* dan tozalanadi. Iyun oyida hayvonlar AI = 1-8 nusxada 18,5% bilan kasallangan. 0,75-50% tebranishlar bilan, iyulda - mos ravishda 38,5% va 1-12 nusxada. 4,5-100% tebranishlar bilan, avgustda - 40,5%, 1-12 nusxa. va 3,5-100%, sentyabr-oktyabr -36,5%, 1-10 nusxa. va 2,5-100%. Eng yuqori EI va II 712 oylik yosh hayvonlarda, o'rtacha - 5-6 oylik va 1,5-2 yoshli hayvonlarda, eng past - ikki yoshdan katta hayvonlarda kuzatiladi. *M.autumnalia* 1-4 oylik buzoqlarda boqilmagani uchun uchramaydi. *Moniezia benedeni* turi 1-4 oylik va 9-12 oylik buzoqlarda, shuningdek, sigir va g'unajinlarda yo'q. Biz bu turni faqat iyul-avgust oylarida 5-6 oylik buzoqlarning ichaklaridan (0,5% va 1-2 ta) va iyul-avgustda 7-8 oylik hayvonlardan ajratib oldik. M.V.Kuznetsov Moskva viloyati sharoitida qoramollar (*Bos taurus*) ni ko'proq *M.autumnalia* bilan, ayrim hollarda *M. benedeni* bilan zararlanishini, *M.expansani* esa ushbu tur hayvonda voyaga etmasligini ko'rsatib o'tgan. Shu bilan birga *M.benedeni* qoramollarga kam miqdorda yuqishi bilan uning voyaga etganlarida jinsiy mahsulotni past darajada bo'lishini ham muallif qayd qilib o'tgan [4].

Ba'zi adabiyot ma'lumotlari E.M.Matevosyan (1938) ga ko'ra *M.expansa* ning eni 2,67 – 2,85 mm ga, bo'yi 0,90 – 1,12 mm ga teng bo'lgan bo'g'inlarda bachadon

rivojlanadi, eni 4,33 – 4,72 ga, bo‘yi 1,0 – 1,12 mm ga teng bo‘lgan bo‘g‘inlarda etilgan hisoblanadi, bo‘g‘inlar etilishi bilan bachadon buziladi (erib ketadi). Tuxumlar esa parenximada erkin joylashadi va bo‘g‘in bo‘shlig‘ini egallaydi. E.M.Matevosyaning yozishicha *M.expansa* ning etilgan tuxumlari yumoloq shaklga ega va ularning diametri 0,063 - 0,073 mm ga teng. Tuxum ichidagi noksimon aparatining uzunligi 0,048 mm ni, onkosferaning uzunligi 0,12 mm ni, ilmoqchalarining uzunligi 0,007 mm ni tashkil qiladi. Bizning kuzatishimiz bo‘yicha *M.expansa* ning yumoloq shakildagi tuxumlari hali etishishiga ulgurmagan, etilgan tuxumlar esa, ko‘pchilik holatda, uch qirrali shaklni oladi. V.A.Potyomkina (1949) ning yozishicha *M.expansa* ning tuxumlari bachadonidan ajralib chiqishadi noto‘g‘ri joylashgan 6 ta qirraga ega, hajmi 0,050 x 0,060 mm to‘q kulrang tusga ega. O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan 2015-2017 yillarda “O‘zbekiston sharoitida yirik va mayda shoxli hayvonlarning ichak sestodozlarini diagnostika qilish, davolash va ularga qarshi kurash usullarini takomillashtirish” mavzusida amaliy loyiha ustida tadqiqot ishlarini bajardik. Ularning dastlabki ma’lumotlari hozirgi paytda qo‘ylar va echkilar orasida monieziyoz qo‘zg‘atuvchilari orasida *Moniezia expansa* *M.benedeni* dan tashqari morfologik jixatdan keskin farq qiluvchi yangi tur monieziyalarni, avitellinoz qo‘zg‘atuvchisi *Avitellina centripunctata* dan tashqari boshqa tur avitellinalarning uchrashi to‘g‘risida tegishli ilmiy ma’lumotlar berib kelishmoqda[3].

Mumkin shu sababdan bo‘lsa kerak, endilikda tarqalishi va boshqa epizootologik jihatlari tomonidan monieziyozlar va avitellinozlar kuchayib bormoqdadir. Shuni ta’kidlash muhimki 1974 yilda SH.A.Azimov O‘zbekiston sharoitida saqlanadigan yirik shoxli hayvonlarda *Moniezia autumnalia* Kuznetsov, 1967 turini parazitlik qilishini aniqlagan.

XULOSA. Tahlil qilingan adabiyotlar ma’lumotlariga ko‘ra, kavshovchi hayvonlar ichida qoramollar anoplotsefalyatozlari tur tarkibi jixatidan kengroq o‘rganilmagan. Anoplotsefalyatozlarning bahor va kuz oylarida boshqa mavsumlarga qaraganda kuchayishi uning qo‘zg‘atuvchisining faolligini oshirishi bilan bog‘liq deb hisoblash mumkin. Yozda tuproq namligini kamayshi, haroratni yuqori bo‘lishi sestodlarning oraliq xo‘jayinlarining faolligiga, albatda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qishda esa ular faolligini to‘xtatadi. Ammo qishning ayrim iliq va yog‘ingarchilik (yomg‘ir yog‘ishi) tufayli talaygina bo‘g‘imoyoqlilar faollashadi, bu esa anoplotsefalyatozlarga hayvonlarning chalinishiga imkon yaratadi. Shu tufayli anoplotsefalyatozlarni qishda ham kuzatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. B.S.Salimov. SH.Qurbonov S.Xudayarova. SH.X.Muhammadiyeva Echkiilar monieziyozlari va uning qo‘zg‘atuvchilari to‘g‘risida yangi ma’lumotlar|| Jurnal “Zooveterinariya” № 10 son 2015 yil 12-15 betlar

2. Давлатов, Р. Б., & Хушназаров, А. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗОТОЛОГИЯСИ ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКА ЧОРА-

ТАДБИРЛАРИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 181-184.

3. Khasanovich, N. D., & Bakhodirovich, Y. J. DIAGNOSTICS AND SOME FEATURES OF DEMODECOSIS IN DOGS OF THE SAMARKAND REGION. *SCIENCE EDUCATION PRACTICE*, 126.

4. Кузнецов М.И. Анопистоцефалозы жвачных животных. // Автореф. док. дисс. Москва, 1967. -45 с

5. Muhammadiyeva, Shaxnoza Xursandovna. "SAMARQAND VILOYATI SHAROITDA QORAMOLLAR MONIEZIOZNING EPIZOTOLOGIYASI." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.9 (2022): 489-495.

6. Nishanov, D. X., & Arabov, J. M. (2022). ITLAR DEMODEKOZINI SAMARALI DAVOLASH USULI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 318-322.

7. Jabborov, G., & Rayimqulov, I. X. (2022). QO ‘Y VA ECHKILARNING EKTOPARAZITLARI VA ULARGA QARSHI DORI VOSITALARINI SINOV DAN O ‘TKAZISH. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 86-89.

8. P.S. Haqberdiyev, Sh.X. Qurbanov. “Veterinariya parazitologiyasi fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari”. Toshkent 2015.

9. Курбанов, Ш. Х., Отабоев, Х. Э., Эшқораев, А. М., & Фармонов, М. У. (2022). ЖИГАР ТРЕМАТОДАЛАРИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ВА ЭПИЗОТОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 256-264.

10. Райимкулов, И. Х., & Кулиев, Б. А. (2019). Гистохимические показатели при экспериментальной пневмонии у каракульских ягнят.

11. Райимкулов, И., & Кулиев-доцент, Б. А. ҚОРАКЎЛ ҚЎЗИЛАРДА КАТАРАЛ-ЙИРИНГЛИ БРОНХОПНЕВМОНИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ ПАТОМОРФОЛОГИЯСИ. *ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВЕТЕРИНАРИЯ ВА ЧОРВАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ҚЎМИТАСИ*, 264.

12. Рустамов, Б. С., & Давлетов, Р. Б. (2019). СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ГИСТОМОНОЗЕ ИНДЕЕК. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 116-119).

13. Рустамов, Б. С., & Давлатов, Р. Б. (2021). КУРКАЛАР ГИСТОМОНОЗИНИ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШДА ВИТАМИНЛИ КОМПЛЕКСЛАРНИ СИНОВДАН ЎТКАЗИШ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).

14. Rustamov, B. S., & Davlatov, R. B. Prevalence and Treatment of Turkeys Histomonosissamarkand Institute of Veterinary Medicine. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (1), 1-5.

15. Rustamov, B. S., Berdiyev, X. R., Abduraimov, A. A., & Barotov, U. Z. (2022). KURKA ASKARIDIOZINI DAVOLASHDA QO ‘LLANILAYOTGAN ANTGELMINTIK PREPARATLARNING

SAMARADORLIGI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI, 373-376.

16. Рустамов, Б. С. (2021). Эффективное средство профилактики и лечения гистомоноза индейки.

17. Usmonov, I. (2022). QORAMOLLARNING ANOPLOTSEFALYATOZLAR. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI, 403-406.

18. Турсункулов, А. Р., & Хушназаров, А. Х. (2020). ҲАЙВОНЛАРНИНГ ЛАРВАЛЬ ЦЕСТОДОЗЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАТАДБИРЛАРИ. ҚОРАКЎЛЧИЛИК ВА ЧЎЛ ЭКОЛОГИЯСИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ, 332.

19. Хушназаров, А. Х. (2022). ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ ПО ХИМИОТЕРАПИИ И ХИМИОПРОФИЛАКТИКИ ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(2), 83-86.

20. Хушназаров, А. Х., Хушназарова, М. И., & Исоқулова, З. Х. (2023). ЭЙМЕРИОЦИД ПРЕПАРАТЛАРНИ ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИДА ҚЎЛЛАШ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 138-143.

21. Хушназаров, А. Х., Райимкулов, И. Х., Эшқораев, А. М., & Давлатов, Р. Б. (2023). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИ. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.

22. Хушназаров, А., Райимкулов, И., & Эшқораев, А. (2023). ЗАМОНАВИЙ КАТАКЛАРДА ҚУЁНЛАРНИ БОҚИШ УСУЛЛАРИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 2), 52-57.

23. Sh.X.Muhammadiyeva, T.I.Tayloqov Anapolotsfalyatozlarining qoramollar orasida tarqalishi // «Тенденции развития ветеринарной паразитологии на пространстве СНГ и других стран в начале XXI века» 2021 год 28-30 апрель 80-81 стр.

24. Sh.X.Muhammadiyeva, T.I.Tayloqov Mayda shoxli hayvonlarning gelmintozlariga yangi antgelmintiklarning ta'siri. "Veterinariya va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, mavjud muammolar va ularning yechimi" mazusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Samarqand. 5-6 may 2021. –B. 218-220.